

Xorazm Viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2025-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Xorazm viloyatini qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 4 245,1 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 4 107,0 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 50,5 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 87,6 mlrd so'mni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2025-yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Qo'shko'pir (472,8 mlrd so'm), Urganch (463,8 mlrd so'm), Xonqa (431,1 mlrd so'm), Xiva (423,6 mlrd so'm), Gurlan (420,6 mlrd so'm) va Bog'ot (381,3 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Yangiariq tumani (357,5 mlrd so'm), Yangibozor tumani (263,0 mlrd so'm) va Tuproqqal'a tumanini (102,2 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.



	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
Xorazm viloyati	4 245,1	103,8
Urganch shahar	165,2	101,7
Xiva shahar	18,6	102,9
Bog'ot tumani	381,3	103,0
Gurlan tumani	420,6	103,6
Qo'shko'pir tumani	472,8	102,5
Urganch tumani	463,8	102,9
Hazorasp tumani	343,8	103,1
Tuproqqal'a tumani	102,1	102,8
Xonqa tumani	431,1	105,0
Xiva tumani	423,6	104,0
Shovot tumani	401,7	106,8
Yangiariq tumani	357,5	103,4
Yangibozor tumani	263,0	105,3

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Shovot (106,8 %), Yangibozor (105,3 %), Xonqa (105,0 %), Xiva (104,0 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Gurlan (103,6 %), Yangiariq (103,4 %), Urganch (102,9 %), Qo'shko'pir (102,5 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish


2025-yilning yanvar-mart oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 4 039,8 mlrd so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 103,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 184,2 mlrd so'mni (104,3 %), chorvachilik mahsulotlari 3 855,6 mlrd so'mni (103,4 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Urganch (449,7 mlrd so'm), Qo'shko'pir (439,2 mlrd so'm), Xonqa (415,0 mlrd so'm) va Gurlan (408,8 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Xiva tumani (399,1 mlrd so'm), Shovot tumani (391,2 mlrd so'm) va Bog'ot tumanini (361,1 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Shovot (106,0 %), Yangibozor (105,0 %), Xonqa (104,5 %), va Yangiariq (103,4 %) tumanlarida qayd etildi. Gurlan (103,2 %) va Hazorasp (102,8 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 88,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,2 % i fermer xo'jaliklariga, 5,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Urganch (432,0 mlrd so'm), Qo'shko'pir (431,2 mlrd so'm), Gurlan (396,7 mlrd so'm), Xonqa (393,8 mlrd so'm) va Xiva (390,7 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Bog'ot tumani (315,5 mlrd so'm), Hazorasp tumani (312,3 mlrd so'm) va Yangiariq tumanini (312,3 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Shovot (106,0 %), Yangibozor (104,6 %), Xonqa (104,4 %), Xiva (103,3 %) tumanlarida qayd etildi. Tuproqqal'a (102,8 %), Qo'shko'pir tumanlari (102,0 %) va Urganch shahrida (101,6 %) esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 45,1 ming tonna go'sht, 223,8 ming tonna sut, 98,8 mln dona tuxum, 106 tonna qirqib olingan jun, 1,8 ming dona qorako'l teri yetishtirildi va 3,9 ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,3 % ni, sog'ib olingan sut – 103,8 % ni, olingan tuxum – 100,6 % ni, qirqib olingan jun – 108,2 % ni, olingan qorako'l teri – 106,8 % ni hamda ovlangan baliqlar – 115,4 % ni tashkil qildi.

2025-yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 3,2 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 87,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 9,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 6,6 % i fermer xo'jaliklari, 92,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 0,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.



**2025-yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliq**

	Yanvar-mart 2025-y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	45,1	103,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1,4	125,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	39,5	102,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4,2	104,8
Sut, ming tonna	223,8	103,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	14,7	115,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	207,5	103,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,6	100,3
Tuxum, mln dona	98,8	100,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	11,9	118,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	64,8	94,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	22,1	114,1
Jun, tonna	106	108,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	34	113,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	63	101,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	9	150,0
Qorako'l teri, ming dona	1,8	106,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	0,1	167,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1,6	103,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,1	109,8
Baliq, ming tonna	3,9	115,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	2,6	121,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	0,2	100,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,1	105,0

Shu bilan birga, olingan tuxumning 12,0 % i fermer xo'jaliklariga, 65,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 22,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.



Shuningdek, qirqib olingan junning 32,1 % i fermer xo'jaliklari, 59,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 8,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 7,6 % i fermer xo'jaliklariga, 89,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 66,5 % i fermer xo'jaliklariga, 5,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 28,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari hajmi

	Go'sht (tirik vaznda), tonna	Sut, tonna	Tuxum, ming dona
Xorazm viloyati	45 101	223 790	98 803
Urganch shahar	2 531,3	1 787,1	634,6
Xiva shahar	124,7	1 983,1	739,5
Bog'ot tumani	3 687,3	16 289,1	8 528,2
Gurlan tumani	4 340,7	24 702,2	5 712,0
Qo'shko'pir tumani	7 219,1	21 482,6	4 448,5
Urganch tumani	4 615,3	27 088,9	17 696,7
Hazorasp tumani	2 694,3	27 076,8	5 232,7
Tuproqqal'a tumani	1 190,2	3 536,2	2 341,6
Xonqa tumani	4 121,9	25 264,3	17 396,7
Xiva tumani	4 455,5	20 282,5	19 372,0
Shovot tumani	4 418,8	20 627,7	5 112,3
Yangiariq tumani	3 157,6	18 224,4	6 749,2
Yangibozor tumani	2 544,3	15 445,1	4 839,0

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Bog'ot (45,7 mlrd so'm), Yangiariq (32,0 mlrd so'm), Urganch (17,7 mlrd so'm), Yangibozor (13,2 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Tuproqqal'a tumanini



(6,7 mlrd so'm), Xiva tumani (8,3 mlrd so'm) va Hazorasp tumanini (6,9 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Yangibozor (113,3 %), Yangiariq (107,4 %) Gurlan (104,9 %) tumanlarida qayd etildi. Qo'shko'pir (103,0 %), Tuproqqal'a (101,9 %) va Bog'ot (101,2 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Xorazm viloyati	5 726	104,6
Urganch shahar	-	-
Xiva shahar	9.0	59,0
Bog'ot tumani	2 123	100,7
Gurlan tumani	198	107,2
Qo'shko'pir tumani	29	88,2
Urganch tumani	503	100,3
Xazorasp tumani	57	105,4
Tuproqqal'a tumani	180	101,1
Xonqa tumani	664	109,5
Xiva tumani	75	80,3
Shovot tumani	146	108,0
Yangiariq tumani	1 526	107,9
Yangibozor tumani	217	142,4

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Bog'ot tumani (37,0 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Yangiariq (27,0 %), Xonqa (12,0 %), Urganch (9,0 %) va Yangibozor (4,0 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Tuproqqal'a (3,0 %), Xiva (1,0 %) va Qo'shko'pir tumanida (0,5 %) kuzatildi.

2024-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Yangibozor tumani (142,4 %), Xonqa tumani (109,5 %), Shovot tumani (108,0 %), Yangiariq tumani (107,9 %), Gurlan (107,2 %) tumanida qayd etildi.



IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2025-yilning 1-aprel holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 978,2 ming boshga yetdi, (2024-yilning 1-aprel holatiga nisbatan 1,1 % ga ko'p), sigirlar 371,3 ming boshga (1,1 % ga ko'p), qo'y va echkilar 508,0 ming boshga (1,3 % ga ko'p), parrandalar 7 354,6 ming boshga (106,7 % ga ko'p) yetdi.

2025-yilning 1-aprel holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	978,2	101,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	81,7	109,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	880,6	100,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	15,9	108,6
shundan sigirlar	371,3	101,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	34,9	111,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	330,3	100,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	6,1	107,1
Qo'y va echkilar	508,0	101,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	91,5	110,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	387,4	100,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	29,1	91,2
Otlar	5,8	100,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	0,9	110,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	4,8	98,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,1	123,2
Parrandalar	7354,6	106,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1193,0	109,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	3946,5	100,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2215,1	118,3

2025-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,3 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 90,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 9,4 % i fermer xo'jaliklariga, 88,9 % i dehqon va tomorqa



xo'jaliklariga, 1,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 18,0 % i fermer xo'jaliklariga, 76,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 16,2 % i fermer xo'jaliklariga, 53,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 30,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2025-yilning 1-aprel holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Xorazm viloyati	978,2	508,0	7354,6
Urganch shahar.	6,3	2,2	42,5
Xiva shahar	17,0	12,8	43,6
Bog'ot tumani	87,7	66,3	781,9
Gurlan tumani	97,6	20,0	628,2
Qo'shko'pir tumani	93,1	94,2	724,0
Urganch tumani	116,9	56,4	998,5
Xazorasp tumani	88,8	64,7	507,3
Tuproqqal'a tumani	21,7	25,6	117,4
Xonqa tumani	121,1	29,9	1 017,4
Xiva tumani	72,5	25,9	579,7
Shovot tumani	97,0	43,2	805,0
Yangiariq tumani	74,7	44,9	588,3
Yangibozor tumani	83,8	21,8	520,7

**V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha
uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar**

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida,



o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
T. Xodjayev
6222 4-64-96 (9110)

Manzil:

